

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish siyosati

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. "AKVION" AJ (OGRN 1027739039195, STIR 7703346654, yuridik manzili: 123112, Moskva sh., Presnenskaya qirg'oq bo'yi, 8-uy, 1-imorat, 8-qavat, IN-xizmat xonasi – 11-xona) (keyingi o'rinlarda – AKVION) tomonidan qabul qilingan ushbu Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish siyosati (keyingi o'rinlarda - Siyosat) sayt Tashrif buyuruvchilarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishning asosiy tamoyillari, maqsadlari, tartibi va shartlarini, shaxsiy ma'lumotlarni xavfsizligini va himoyasini ta'minlash bo'yicha choralarni belgilab beradi.
- 1.2. Ushbu Siyosat shaxsiy ma'lumotlar sohasida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, Rossiya Federatsiyasining qonunchilik va boshqa normativ huquqiy hujjatlari talablari bilan muvofiqlikda ishlab chiqilgan va AKVION sayti - maslo-dishi.ru (keyingi o'rinlarda - Sayt)ga cheklovlarsiz kirish uchun nashr qilingan.
- 1.3. Ushbu Siyosatda qo'llaniluvchi tushunchalar ularning Rossiya Federatsiyasi 27.07.2006 yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi 152-FQ-sonli Federal qonunida belgilab berilishiga binoan talqin qilinadi.
- 1.4. AKVION ushbu Siyosatning qoidalarini hisobga olgan holda olingan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan maxfiylikka rioya etilishini kafolatlaydi va ularni faqat Siyosatda ko'rsatilgan maqsadlar uchun qo'llash majburiyatini zimmasiga oladi.

2. Shaxsiy ma'lumotlarning tushunchasi va tarkibi

- 2.1. AKVIONda himoyalangan shaxsiy ma'lumotlarning ro'yxati Rossiya Federatsiyasi 27.07.2006 yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi 152-FQ-sonli Federal qonuni bilan muvofiqlikda shakllantiriladi.
- 2.2. AKVION Saytga Tashrif buyuruvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga (shu jumladan, familiyasi, ismi, kontakt telefoni, elektron pochta manzili va boshqalar), hamda Sayt sahifalarida tanlangan shakl (keyingi o'rinlarda - Shakl) orqali ma'lumotni yuborish yoki elektron xat yuborish yo'li bilan shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga Rozilik (keyingi o'rinlarda - Rozilik) bildirgan subyektlarning @akvion.ru ga yakunlanuvchi AKVION korporativ pochta-siga (keyingi o'rinlarda - Korporativ pochta) kelib tushuvchi shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoyalashni amalga oshiradi. Rozilikni qabul qilish payti bo'lib Shaklda muvofiq maydonni belgilash va Saytning har qanday sahifasida Shaklni yuborish tugmasiga bosish, hamda Korporativ pochta manziliga subyektning shaxsiy ma'lumotlarini saqlovchi elektron xatni yuborish tugmasiga bosish hisoblanadi.
- 2.3. Saytni ko'rish, matnlarni o'qish va boshqa ma'lumotlarni yuklash vaqtida Tashrif buyuruvchi Saytni ko'rayotgan kompyuter haqida muayyan ma'lumotlarni avtomatik ro'yxatga olinishi sodir bo'ladi. Saytni ko'rishda quyidagi ma'lumotlar to'planadi:
 - saytga tashrif buyurish sanasi va vaqti;
 - kirilgan sahifalarning soni, ularning nomlanishi, hamda ko'rish davomiyligi;
 - internetga kirish uchun qurilmaga belgilangan IP-manzil;
 - brauzer va operatsion tizim turi;
 - o'tish amalga oshirilgan sayt URL.

3. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari

- 3.1. Sayt Tashrif buyuruvchilarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish quyidagi maqsadlar uchun amalga oshiriladi:
 - Sayt Tashrif buyuruvchilari tomonidan ko'rsatilgan elektron pochta manziliga xabarlarini yuborish orqali Sayt Tashrif buyuruvchilariga ma'lumot va marketing ma'lumotlarini yetkazish;

- Tashrif buyuruvchilarga AKVION bilan qayta aloqa uchun imkoniyatlarni taqdim etish;
- marketing faoliyati va Sayt Tashrif buyuruvchilarni qo'llab-quvvatlash, hamda Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga va AKVION va Saytning muvofiq tashrif buyuruvchilari o'rtasida kelishuv shartlariga zid kelmaydigan boshqa maqsadlarda ko'rsatilayotgan xizmatlarga tegishli masalalar bo'yicha Sayt Tashrif buyuruvchilariga maslahatlarni taqdim qilish.

4. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishning prinsiplari va shartlari

- 4.1. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish quyidagi prinsiplarga asoslanadi:
 - qonuniylik va odilona negiz;
 - aniq, oldindan belgilab berilgan va qonuniy maqsadlarga erishishni cheklash;
 - shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish maqsadlari bilan mos kelmaydigan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga yo'l qo'ymaslik;
 - bir-biri bilan mos kelmaydigan maqsadlarda ishlov berish amalga oshirilayotgan shaxsiy ma'lumotlarni saqlovchi ma'lumotlar bazasini birlashtirilishiga yo'l qo'ymaslik;
 - ishlov berilayotgan shaxsiy ma'lumotlarning tarkibi va hajmi ishlov berish talab etilgan maqsadlarga muvofiq kelishi lozim;
 - shaxsiy ma'lumotlarni saqlash shaxsiy ma'lumotlar subyektini aniqlashga imkon beradigan shaklda, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari talab qiluvchi muddatdan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi, agar shaxsiy ma'lumotlarni saqlash muddati federal qonun, shaxsiy ma'lumotlar subyekti bo'lib hisoblanuvchi, tomoni foyda oluvchi yoki kafil hisoblanuvchi shartnoma tomonidan o'rnatilmagan bo'lsa;
 - shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligi bilan ko'zda tutilgan boshqa prinsiplar.
- 4.2. AKVION quyidagi kamida bitta shart mavjud bo'lganda shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradi:
 - shaxsiy ma'lumotlar subyekti shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga Rozilik bergan;
 - agar shaxsiy ma'lumotlar subyektining huquqlari va erkinliklari buzilmasa, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun AKVIONNING huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish zarur;
 - shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish ma'lumotlarni majburiy shaxssizlantirish sharti bilan statistik yoki boshqa tadqiqot maqsadlarida amalga oshirilmoqda;
 - shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligi bilan ko'zda tutilgan boshqa shartlarda.

5. Huquq va majburiyatlar

- 5.1. Shaxsiy ma'lumotlar subyekti quyidagi huquqlarga ega:
 - o'zining shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish, ularni yangilash, bloklash yoki yo'q qilishni talab qilish;
 - AKVION tomonidan ishlov berilayotgan o'z shaxsiy ma'lumotlarining ro'yxatini, ularni olish manbalari, o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish muddatlari, shu jumladan ularni saqlash muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, va o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish haqidagi boshqa ma'lumotlarni olish;
 - ilgari uning noto'g'ri yoki noto'liq shaxsiy ma'lumotlari haqida xabar berilgan barcha shaxslarga qilingan barcha tuzatishlar yoki qo'shimchalar to'g'risida xabar berishni talab qilish;
 - uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishda noqonuniy harakatlar yoki harakatsizliklar ustidan o'rnatilgan tartibda shikoyat qilish
- 5.2. Sayt Tashrif buyuruvchilari o'zlari haqida faqat ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi.
- 5.3. Tashrif buyuruvchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga Rozilik ishlov berish maqsadlariga erishish uchun AKVIONga zarur bo'lgan butun muddatga beriladi.

- 5.4. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga Rozilik 123112, Moskva sh., Presnenskaya qirg'oq bo'yi, 8-uy, 1-imorat, 8-qavat, IN-xizmat xonasi - 11-xona, "AKVION" AJ manzili bo'yicha yozma arizani yuborish yoki corp@akvion.ru korporativ pochta manziliga xat jo'natish yo'li bilan chaqirib olinishi mumkin.
- 5.5. Shaxsiy ma'lumotlarning boshqa subyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni sayt orqali AKVIONga uzatgan shaxslar, bunda shaxsiy ma'lumotlari uzatilgan subyektning roziligi olinmagan bo'lsa, ular Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
- 5.6. AKVION Sayt Tashrif buyuruvchilaridan ularning irqi, milliy mansubligi, siyosiy qarashlari, diniy va falsafiy e'tiqodlari haqidagi ma'lumotlarni hech qachon so'ramaydi.
- 5.7. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish davomida AKVION quyidagilarni amalga oshirishga haqli: Tashrif buyuruvchining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, qo'llash, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish.
- 5.8. Tashrif buyuruvchilarning AKVION tomonidan tashkillashtiriluvchi tadbirlarda ishtirok etish holatida oxirgi bunday tadbirni tashkillashtirishda ishtirok etayotgan shaxslarga Tashrif buyuruvchilarning muvofiq shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishga haqli.
- 5.9. AKVION uchinchi shaxslarga Sayt Tashrif buyuruvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini uzatishga haqli emas, quyidagi shaxslar bundan mustasno:
 - vakolatli davlat organlarining vakolatlari doirasida;
 - AKVION Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya qilish doirasida shaxsiy ma'lumotlarni uzatishi shart bo'lgan shaxslar;
 - AKVION shaxsiy ma'lumotlar subyekti bilan shartnomani bajarish maqsadlarida shaxsiy ma'lumotlarni uzatayotgan shaxslar;
 - AKVION shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni ishonib topshiruvchi shaxslar;
 - AKVION qayta tashkil etilishi holatida uning qonuniy vorislari;
 - shaxsiy ma'lumotlar subyektning roziligi bilan boshqa shaxslar.
- 5.10. AKVION Sayt Tashrif buyuruvchisining rozilgisiz tijorat maqsadlarida uning shaxsiy ma'lumotlarini xabar qilishga haqli emas. Aloqa vositalari yordamida potensial iste'molchilar bilan bevosita aloqalarni amalga oshirish yo'li bilan bozorda tovarlar, ishlar, xizmatlarni taraqqiy ettirish maqsadida Tashrif buyuruvchining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish faqat Tashrif buyuruvchining oldindan roziligi bilan yo'l qo'yiladi.
- 5.11. AKVION Tashrif buyuruvchining shaxsiy ma'lumotlarini qabul qilgan shaxslarni ushbu ma'lumotlar faqat ular xabar berilgan maqsadlarda qo'llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirish va ushbu shaxslardan qoidalarga rioya etilganligi haqida tasdiqni talab qilish majburiyatini zimmasiga oladi.
- 5.12. Tashrif buyuruvchining shaxsiy ma'lumotlarini qabul qilgan shaxslar sir (maxfiylik) rejimiga rioya qilishlari shart.
- 5.13. AKVION ushbu Siyosat, hamda AKVIONda chiqarilgan boshqa hujjatlarning qoidalariga muvofiqlikda Sayt Tashrif buyuruvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov beradi va ularni himoya qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazadi.

6. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash

- 6.1. AKVION Sayt Tashrif buyuruvchilari tomonidan taqdim etiluvchi ma'lumotlarni ruxsat etilmagan kirish, oshkor qilish, buzish, bloklash yoki yo'q qilishdan himoyalash uchun texnologik va operatsion xavfsizlikni muvofiq standartlarini qo'llaydi.
- 6.2. AKVIONda qo'llaniladigan choralarga quyidagilar kiradi:
 - shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni tashkillashtirish uchun mas'ul shaxsni tayinlash;
 - shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy, texnik va tashkiliy choralarni qo'llash;
 - qonunchilik talablari, zarar va AKVION tomonidan qo'llaniluvchi xavfsizlik choralari mutanosibli buzilishi holatida shaxsiy ma'lumotlar subyektlariga keltirilishi mumkin

- bo'lgan zararlarni baholash;
 - shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlari serverlarini joylashtirish uchun cheklangan kirishga ega bo'lgan qo'riqlanuvchi xonalardan foydalanish, hamda shaxsiy ma'lumotlarning qog'oz tashuvchilarini saqlash uchun qulflanadigan javonlarni qo'llash;
 - shaxsiy ma'lumotlarga bevosita ishlov berishni amalga oshiruvchi AKVION xodimlarini shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi qoidalar bilan tanishtirish;
 - shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llanilayotgan choralar ustidan nazoratni olib borish.
- 6.3. Shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqi faqat o'z zimmalariga bunday ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash majburiyatini olgan AKVION vakolatli xodimlariga taqdim etiladi.

7. Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash

- 7.1. Sayt Tashrif buyuruvchilarining shaxsiy ma'lumotlari bunday ma'lumotlar taqdim etilgan maqsadlar uchun zarur bo'lgan muddat davomida yoki qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan muddat davomida saqlanadi.
- 7.2. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish uchun maqsadlarga erishish / davr yakunlanishi bo'yicha Sayt Tashrif buyuruvchilarining shaxsiy ma'lumotlari yo'q qilinadi.

8. Yakuniy qoidalar

- 8.1. maslo-dishi.ru sayti seans jurnalining namunaviy ma'lumotlarini to'plash, shu jumladan, IP-manzili, brauzerning turi va tili, tashrif vaqti va havolalar bo'yicha o'tish amalga oshirilgan veb-saytlarning manzili haqidagi ma'lumotlarni to'planishini amalga oshiradi. Saytni samarali boshqarilishini ta'minlash va foydalanuvchi interfeysini sozlashda yordam ko'rsatish maqsadida Saytga muayyan sahifaga kirgan foydalanuvchilarning sonini hisoblash va belgilangan cookie-fayllarga kirishni ta'minlash imkonini beruvchi tracking pixels (kuzatish piksellari) bilan birgalikda cookies (tashrif buyuruvchining brauzerida saqlanuvchi o'Ichami bo'yicha katta bo'lmagan matnli fayllar) yoki web beacons (veb-mayoqlar - elektron tasvirlar) fayllarini qo'llashi mumkin.
- 8.2. To'plangan namunaviy ma'lumotlar faqat statistik maqsadlarda qo'llaniladi. AKVION shaxsiy ma'lumotlarni Tashrif buyuruvchilardan biror birini shaxsiy identifikatsiya qilish maqsadida qo'llamaydi. Biroq, AKVION Saytida ro'yxatdan o'tgan Tashrif buyuruvchilarni avtorizatsiya qilishda ushbu ma'lumotlarni foydalanuvchilar Saytdan qanday foydalanishlarini tahlil qilish uchun ma'lumotlar tahlili vositalari va cookie-fayllar orqali olinuvchi ma'lumotlar bilan birgalikda qo'llashi mumkin.
- 8.3. Saytdan foydalanib, Tashrif buyuruvchi yuqorida ta'riflangan shartlarga binoan Tashrif buyuruvchining qurilmasiga maslo-dishi.ru sayti cookie-fayllarni yuklashi mumkin bo'lishi uchun o'z roziligini beradi.
- 8.4. Ushbu Siyosat shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilishi holatida o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi lozim, hamda AKVION ixtiyori bo'yicha istalgan vaqtda o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. AKVIONda Siyosatning amaldagi tahriri har doim Saytda shaxslarning cheklanmagan doirasi ko'rishi uchun erishimli.
Ushbu Siyosat shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilishi holatida o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi lozim, hamda AKVION ixtiyori bo'yicha istalgan vaqtda o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. AKVIONda Siyosatning amaldagi tahriri har doim Saytda shaxslarning cheklanmagan doirasi ko'rishi uchun erishimli.
- 8.5. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga tegishli va ushbu Siyosatda bevosita o'z aksini topmagan AKVION bilan barcha munosabatlar shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligi qoidalariga binoan tartibga solinadi.

- 8.6. Ushbu Siyosatning talablarini bajarish uchun nazorat AKVIONda shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni tashkillashtirish uchun mas'ul shaxs tomonidan amalga oshiriladi.